



Axborot xabarnomamizning o'n beshinchi soniga xush kelibsiz!

[Yevropa Ittifoqining](#) (YEI) [Xalqaro savdo markazi](#) (XSM) tomonidan amalga oshirilayotgan "[O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayoniga ko'maklashish](#)" loyihasiga bag'ishlangan o'n beshinchi axborot xabarnomani e'tiboringizga havola etishdan mamnunmiz. Loyiha O'zbekistonning [Jahon savdo tashkilotiga](#) (JST) a'zo bo'lishini qo'llab-quvvatlab, uning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi orqali mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga yordamberishga qaratilgandir.

Ushbu son 2024-yilning aprel-iyun oylari oralig'ida O'zbekistonga ko'rsatilgan texnik yordamga bag'ishlangan. Loyiha ushbu chorak tadbirlari qatorida O'zbekistonning 2024-yil 23-mayda Jenevada bo'lib o'tgan 8-lshchi guruh (IG) yig'ilishida ishtirok etishiga ko'maklashdi. IG yig'ilishi oldidan loyiha bosh muzokarachisi va uning jamoasining to'qqiza'zosi uchun qo'shni Qozog'istonga JST bo'yicha muzokaralar tajribasini o'rganish maqsadida missiya tashkil etdi. Delegatsiya Qozog'iston Savdo va integratsiya vazirio'rinbosari Janel Kushukova va Qaztrade vakillari bilan uchrashdi. Bosh muzokarachi va uning uch nafar jamoa a'zosi loyiha ko'magida Olmaota shahrida bo'lib o'tgan ikkinchi Markaziy Osiyo savdo siyosati forumida ham ishtirok etib, tajriba almashish imkoniga egabo'ldi. Loyihaning boshqa muhim jihatlaridan biri savdodagi himoya choralari ma'sul organini tashkil etish bo'yicha yo'l xaritasi ishlab chiqildi. O'tgan chorakda SFS va STT sohalarida birqator texnik o'quv seminarlar ham o'tkazildi.

Mazkur nashr ingliz va o'zbek tillarida ham mavjud.

Loyihamiz haqidagi batafsil ma'lumot [ingliz](#), [rus](#) va [o'zbek](#) tillaridagi veb-saytlarimizda mavjud.

Barcha savollar bo'yicha quyidagi elektron manzilga murojaat qilishingizni so'raymiz: WTOAccessionUZB@intracen.org

Aloqada bo'ling: #WTOAccessionUZB

O'qishdan zavq olishingizni tilab qolamiz!



JAMOAMIZDAN IZOH:

Kindly note that you have been included in the mailing list of our newsletter following your participation to one of our events. If you wish to unsubscribe, you can do so [here](#).


Обращаем внимание, что вы были включены в список нашей новостной рассылки по итогам участия в одном из наших мероприятий. Если вы хотите отказаться от рассылки, пожалуйста, пройдите по этой [ссылке](#).

Сиз ахборотнома почта рўйхатимизга бизнинг тадбирлар бирида иштирок этганлигиз натижасида киритилганлигини эслатиб ўтамиз. Ушбу бундани бекор қилмоқчи бўлсангиз, келтирилган [хавола](#) орқали уни рад қилишингиз мумкин.

[Batafsil Ma'lumot](#)

LOYIHANI AMALGA OSHIRISH: JARAYON VA ERISHILGAN NATIJALAR

Loyiha belgilangan bir qator maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan:

	O'zbekiston hukumati JSTga a'zo bo'lish jarayoni talablariga muvofiq hujjatlarni tayyorlash to'g'risida va muzokaralar olib borish pozitsiyasini ishlab chiqish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
	O'zbekiston hukumati JSTga a'zo bo'lish jarayoni talablariga muvofiq hujjatlarni tayyorlash to'g'risida va muzokaralar olib borish pozitsiyasini ishlab chiqish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
	Savdo siyosatini ishlab chuquvchi davlat xizmatchilarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni hamda tashkilotning huquqiy asoslari to'g'risida xabardorligi oshiriladi.
	O'zbekiston JST qoidalarini, xususan JSTning SFS/STT bitimlari va savdo tartiblarini osonlashtirish to'g'risidagi bitimni bajarish bo'yicha tayyorgarlik darajasini oshiradi.
	XSM amalga oshirayotgan ish JSTga a'zo bo'lish jarayoni va a'zolik afzalliklari to'g'risida biznes sohasi, jumladan, ayol ishbilarmonlar uyushmalari o'rtasida xabardorlikni oshirishga yordam beradi.

Loyiha haqida kengroq tasavvurga ega bo'lish uchun o'tgan chorakdagi faoliyat va erishilgan yutuqlar ushbu loyihaning beshta maqsadiga ko'ra ko'rib chiqiladi.

1-MAQSAD

JSTga a'zo bo'lish jarayoni uchun zarur bo'lgan hujjatlar va muzokaralardagi pozitsiyalarni xabardor bo'lgan holda ishlab chiqish

Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish jarayonida unga qo'shilayotgan mamlakatamaldagi savdo va iqtisodiy siyosati haqida JST a'zo davlatlarini xabardor etadi va a'zolik shartlari ular asosida kelishiladi. Muzokaralar uchun asosiy forum Ishchi guruh (IG)yig'ilishlari hisoblanadi. Loyiha O'zbekistonni bu jarayonda qo'llab-quvvatlaydi.

2024-yil 23-may kuni Jenevada 8-Ishchi guruh yig'ilishi bo'lib o'tdi. Uchrashuvda O'zbekiston yana ikki davlat, ya'ni Urugvay va Koreya Respublikasi bilan bozorga kirish protokollarini imzolaganini e'lon qildi. Shu bilan rasmiy ravishda yakunlangan ikki tomonlama muzokaralar soni 14 taga yetdi, Shri-Lanka va Tayland bilan majburiyatlar bo'yicha ham kelishuvga erishildi. Loyiha O'zbekistonning so'roviga ko'ra, tovarlar va xizmatlar bozoriga kirish takliflari bo'yicha texnik maslahatlar berdi. Loyiha, shuningdek, IG yig'ilishi davomida rus-ingliztarjima imkoniyatini tashkil qildi va bu bilan O'zbekiston delegatsiyasining muzokaralardagi o'zaro muloqot jarayonini yengillashtirdi.



Qozog'iston Savdo va integratsiya vaziri o'rinbosari Janel Kushukova O'zbekiston Prezidentining JST masalalari bo'yicha maxsus vakili, JST bo'yicha bosh muzokarachi Azizbek Urunovni kutib olmoqda.

Fotosurat: XSM

8-IG yig'ilishi oldidan loyiha O'zbekistonning bosh muzokarachisi va muzokara guruhi a'zolari uchun Ostona ([Qozog'iston](#)) (2024 yil 14-15 may) va Olmaota (Qozog'iston) (2024 yil 3-5 iyun) shaharlarida qo'shni davlatlar bilan tajriba almashish imkonini beruvchi missiyalar tashkil qildi (batafsil ma'lumot uchun 3-maqсадga qarang).

Loyiha doirasida, shuningdek, XSM ekspertlari Toshkentga tashrif buyurdi va bir qator munozarali uchrashuvlarda O'zbekistonning muzokara guruhi vakillariga texnik maslahatlar berishdi. Bu XSM ekspertlariga muzokara guruhi uchun JSTga a'zo bo'lish kun tartibining SFS va STT kabi muayyan mavzulari haqida ma'lumot berishga imkon berdi.



Artur Apelon aprel oyida Toshkentga ma'ruza tashrifi chog'ida tashkil etilgan munozaralar seriyasida O'zbekistonning muzokara guruhiga texnik maslahatlar bergan mutaxassislardan biri edi. Apelon Jahon savdo tashkilotining oziq-ovqat xavfsizligi hamda hayvonlar va o'simliklar salomatligiga qo'yiladigan talablari bo'yicha dunyodagi eng yirik huquqiy ekspertlardan biridir.

Fotosurat: XSM

Batafsil Ma'lumot

2-MAQSAD

O'zbekistonning milliy savdo siyosatini JSTga a'zo bo'lish talablariga muvofiqlashtirish uchun muayyan sohaviy qonunlar va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish salohiyatini oshirish

JSTga a'zo bo'lishning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri qo'shilayotgan mamlakatning milliy qonunchiligini JST bitimlariga muvofiqlashtirishdir. Shuning uchun loyiha O'zbekistonga JSTga a'zo bo'lishning ushbu talabini qo'llab-quvvatlash uchun o'z qonunlarini qayta ko'rib chiqishga yordam beradi.

O'tgan yili loyiha O'zbekistonga savdodagi himoya choralari bo'yicha vakolatli organi tashkil etishda yordam berish va uni boshqarish salohiyatini oshirishga ko'maklashish so'rovini oldi.

Savdodagi himoya choralari to'grisidagi qonun loyihasini ishlab chiqish tugallangandan so'ng, o'tgan chorakda loyiha bosh muzokarachini xabardor qilgan holda yangi ishlab chiqilgan qonunchilikni amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan himoya choralari bo'yicha vakolatli organi tashkil etish va salohiyatini oshirishdagi yondashuvbo'yicha qo'shimcha maslahat yordamini ko'rsatdi.

Shuningdek, loyihaga davom etayotgan muzokaralarni qo'llab-quvvatlash uchun tahlil markazi sifatida faoliyat yuritadigan JST huquqi va savdo siyosati bo'yicha tadqiqot markazini tashkil etish bo'yicha tajriba almashish taklifi kelib tushdi. Uning maqsadi iqtisodiy tadqiqotlar va xalqaro savdo huquqi hamdaa'zolik bo'yicha muzokaralar bilan bog'liq huquqiy muammolarni tahlil qilishni o'z ichiga olishi ko'zda tutilgan.

So'rov bo'yicha loyiha, shuningdek, JSTga a'zolikning O'zbekistonga ta'sirini baholash bo'yicha tadqiqot o'tkazish faoliyatini boshladi. Tadqiqotda O'zbekiston JSTga a'zo bo'lish talabiga ko'ra import bojlari stavkasini o'zgartirganda, mamlakat iqtisodiyoti va savdo oqimlariga ta'siri tahlil qilinadi.

Natijalar muzokara guruhining bozorga kirish majburiyatlari ro'yxati bo'yichamuhokamalar olib borishga yondashuvini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, u qo'shimcha eksport imkoniyatlarini aniqlashga yordam berishi kutilmoqda.

3-MAQSAD

Savdo siyosatini ishlab chiquvchi davlat xizmatchilarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni va huquqiy asoslari bo'yicha xabardorligini oshirish

JSTga a'zolikdan foyda olish imkoniyatini qo'llab-quvvatlashda mutasaddilarning JST bitimlarining mazmuni va uning huquqiy asoslari bo'yicha malakasini oshirish, salohiyatini mustahkamlash va texnik yordam ko'rsatish muhim ahamiyatga ega. O'tgan chorak ushbu yo'nalishni qo'llab-quvvatlashga qaratildi.

Ko'nikmalarni rivojlantirish va mustahkamlash uchun loyiha JIDU bilan hamkorlikda hamdazarur bo'lganda "JST kafedralari dasturi" (WTO Chair Programme) ishtirokida Savdo siyosati bo'yicha o'quv dasturini taqdim etdi. 2024 yil yanvar oyida tashkil etilgan Savdo siyosati bo'yicha o'quv dasturi 2024 yil muzokara guruhi uchun muhim sanalgan JSTga a'zo bo'lish mavzulari bo'yicha 11 ta kursni taqdim etishga mo'ljallangan. O'tgan chorakda [SFS va STT masalalari](#) bo'yicha 6-kurs (2024 yil 23-24 aprel kunlari) va 7- kurs [Subsidiyalar, davlat yordami va raqobat](#) (2024 yil 19 va 25 iyun kunlari) bo'yicha o'tkazildi.



23-24 aprel kunlari SFS va STT masalalari bo'yicha ikki kunlik seminar ishtirokchilari. JIDUda Savdo siyosati bo'yicha o'quv dasturidavomida texnik ko'nikmalarni rivojlantirish uchun taklif qilingan 6-kurs.

Fotosurat: XSM



2024-yil 3-5-iyun kunlari Qozogʻistonning Olmaota shahrida boʻlib oʻtgan Markaziy Osiyo savdo siyosati boʻyicha Ikkinchi forum delegatlari. Forum Markaziy Osiyo davlatlari va Ozarbayjon oʻrtasidagi JST muzokaralarida olingan saboqlar boʻyicha tajriba va texnik bilim almashish imkonini berdi.

Fotosurat: XSM

Loyiha, shuningdek, boshqa mamlakatlarning JST muzokaralari boʻyicha tajribasini oʻrganish maqsadida ikkita missiyada Oʻzbekiston bosh muzokarachisi va boshqa mutasaddilarning ishtirokini taʼminladi.

Loyiha 2024-yilning 14-15-may kunlari Qozogʻistonning Ostona shahriga texnik bilim va tajriba almashish uchun bosh muzokarachi va boshqa toʻqqiz nafar mutasaddilar uchun missiya tashkil etdi. Ular Qozogʻiston Savdo va integratsiya vaziri oʻrinbosari Janel Kushukova, Qozogʻiston Savdo siyosatini rivojlantirish markazi (QazTrade) bosh direktori va Qozogʻistonning JSTga kirishi boʻyicha muzokara olib borgan rasmiylar bilan ham uchrashdi.

2024-yil 3-5-iyun kunlari Qozogʻistonning Olmaota shahrida boʻlib oʻtgan ikkinchi Markaziy Osiyo savdo siyosati forumida bosh muzokarachi va uch nafar mutasaddilar ham ishtirok etdi. XSM, JST va Osiyo taraqqiyot banki tomonidan hamkorlikda tashkil etilgan forumda Qozogʻiston hukumati — Markaziy Osiyoning beshta davlati va Ozarbayjonning yuqori martabali vakillarini mintaqaviy integratsiya va JSTga kirish masalalarini muhokama qilish uchun yigʻdi. Bu JSTga aʼzo boʻlish va aʼzo boʻlgandan keyin oʻrganilgan tajriba va saboqlarni almashish imkoniyatini yaratdi.



“Jahon savdo institute (WTI)kursida qatnashish xalqaroinvestitsiya qoidalarini barqarorrivojlanish bilan qanday ishlashitushunishimizga yordam berdi. Bu JSTga a’zo bo’lish uchun muhim... Biz mojarolarni hal qilish va xalqaroshartnomalardan foydalanishbo’yicha amaliy ko’nikmalarnio’rgandik, bu O’zbekistongainvestorlar bilan yaxshiroqishlashga va JSTga a’zo bo’lishjarayonini jadallashtirishga yordamberadi”.

– Ulmeken Yusupbayeva, Jahon savdo instituti (WTI)ningYozgi Akademiyasi '24 ishtirokchisi, Shveysariya

Loyihaga Jahon savdo institutining (WTI) Yozgi Akademiyasi kurslarida Bern shahri,Shveysariyada, 2024-yil iyul oyida, to’rt nafar mutasaddilarning (ikki nafari Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligidan, ikkitasi Adliya vazirligidan) texnik bilimlarini oshirish maqsadida ishtirok etishiga ko’maklashish bo’yicha so’rov kelib tushdi. “Investitsiya huquqi va barqaror rivojlanish” va “Chegaraviy savdo va investitsiyalar bo’yicha xalqaro shartnomalar” kurslarida ishtirok etishlari uchun tadbirlar tashkil etildi.

“Hindistondagi treningda ishtirok etishimni tashkil etgani uchun XSMga o’z minnatdorchiligimnibildiraman. Kurs davomida savdo, GATS, GATT va JST bitimlari qonun- qoidalarini bo’yicha zarurko’nikma va bilimlarga ega bo’ldim”.

– **Timur Shaxnazarov, Xalqaro savdo huquqi va iqtisodiy siyosat bo’yicha CWS-WTI qo’shmaakademiyasi ishtirokchisi, Hindiston**

Shuningdek, so'rov bo'yicha loyiha ikki rasmiy vakillarni (Investitsiyalar, sanoat va savdovazirligi hamda Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi) 2024-yil iyun oyida Hindistonda Xalqaro savdo huquqi va iqtisodiy siyosat bo'yicha CWS-WTI qo'shma akademiyasining "JST huquqining asoslari; Savdo iqtisodiyotiga kirish"; "Global xizmatlar savdosining iqtisodiyoti va amaliyoti; Imtiyozli savdo shartnomalari; Savdova atrof-muhit" kabi kurslarida qatnashish imkoniyatini ta'minladi.

4-MAQSAD

Sanitariya-fitosanitariya (SFS) me'yorlariga, savdodagi texnik to'siqlar (STT) va savdo chora-tadbirlarini soddalashtirish bo'yicha JST majburiyatlariga rioya qilishda milliy institutsional imkoniyatlarni kuchaytirish

Mamlakat JSTga a'zo bo'lganida uning STT va SFS bilan bog'liq institutlarini JST qoidalariga muvofiqlashtirish maqsadida loyiha ushbu chorakda bir qator natijalarga erishdi.

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risidagi qonunni ko'rib chiqqandan so'ng qo'shimcha yordam so'radi. Shuning uchun loyiha oziq-ovqat milliy qonunchiligini Alimentarius Kodeksi bilan uyg'unlashtirish bo'yicha ishlarni davom ettirdi. U sanitariya qoidalarini va me'yorlarini (SanPiNs) modernizatsiya qilish bo'yicha strategik yondashuvni ishlab chiqdi va oziq-ovqat xavfsizligi sohasida oltita tanlangan me'yoriy hujjatlarni yangilashga yordam berdi.

Maxsus SFS qonunchilik va me'yoriy hujjatlari ham tarjima qilindi, bu esa qiymat zanjiridagi ishtirokchilarning ko'pchiligi uchun ulardan foydalanish imkonini yaratdi. Shuningdek, O'zbekistonning SFS bitimi doirasidagi shaffoflik majburiyatini bajarishga ham hissaqo'shadi.

Bundan tashqari, chorak davomida bir qator texnik mashg'ulotlar ham o'tkazildi. [STT sohasida](#) treninglar davlat va xususiy sektordagi muvofiqlikni baholash xizmatlariko'rsatuvchilariga, shuningdek tadqiqotchilarga o'tkazildi. Jumladan, nazariy va amaliy jihatlarni qamrab olgan seminarlar: ISO/IEC 17021-1:2015 va majburiy hujjatlarni joriy etish(2024-yil 14-15-may); Sinov laboratoriyalarida o'lchovlar va sinovlarning metrologikkuzatilishi (2024 yil 20-22 may); Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilishdariskga asoslangan yondashuvlar (2024 yil 23-24 may) masalalariga bag'ishlandi. SFS sohasida Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining talabiga binoanamaliyotchilarni Yevropa Ittifoqi bozoriga kirish talablari bilan tanishtirish uchun Milliy qoldiqnazorati rejalari bo'yicha Yevropa Ittifoqi talablari (2024 yil 12-13 iyun) mavzusida o'quvseminar ham tashkil etildi.



Iyun oyida turli SFS yo'nalishlaribo'yicha seminarlar ishtirokchilari.

Fotosurat: XSM

5-MAQSAD

Manfaatdor tomonlarning, shu jumladan ayollar uyushmalarining JSTga a'zo bo'lish haqida xabardorligini oshirish

Loyihaning asosiy maqsadlaridan biri ham xususiy sektor, ham fuqarolik jamiyati o'rtasida JSTga a'zo bo'lish va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvning mumkin bo'lgan afzalliklari haqida xabardorlikni oshirishdan iborat. Xususiy sektor uchun bu eksport imkoniyatlarini anglatishi mumkin. O'tgan yil davomida o'tkazilgan o'quv seminarlaridan so'ng, loyiha benefitsiarning qo'shimcha shunga o'xshash tadbirlarni tashkil etish bo'yicha keyingi so'rovlarini kutmoqda.

[Maqolalarni veb-saytimizda o'qing](#)